



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI

Ortiqov Xamroqul Abdimajitovich

Toshkent iqtisodiyot va soliq texnikumi yoshlar ishlari bo'yicha  
direktor o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16734851>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 31-Iyul 2025 yil

### KEYWORDS

*Kichik biznes va tadbirkorlikni  
iqtisodiyotda tutgan o'rni,  
kichik korxonalar, investitsiya,  
savdo, YAHM, iqtisodiyot,  
rivojlanish istiqbollari.*

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Ushbu sohaning xususiyatlari va iqtisodiyotdagi tutgan o'rni batafsil keltirilgan. Kichik biznesning innovatsion va investitsion faolligi, shuningdek, rivojlanish istiqbollari muhokama qilingan.*

Jahonda, xususan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ular jahondagi korxonalarining katta qismini tashkil qilgani holda global iqtisodiyot va bandlikni ta'minlashda yuqori ulushga ega bo'lmoqda. Jumaladan, butun dunyo bo'ylab korxonalarining 90 foizga yaqini va ish bilan bandlarning 50 foizdan oshig'i kichik va va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari hissasiga to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy daromadning 55 foizgacha qismini tashkil qiladi.

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida kichik biznes sub'yektlari bandlikning muhim manbai hisoblanadi. U global bandlikning 7, 6 foizini ta'minlaydi, ya'ni taxminan 230 million kishiga tengdir. Umuman olganda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik korxonalar roli katta bo'lib, tadbirkorlikni rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va daromadlarni taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. [1]

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yanada takomillashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklolarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulush ko'rsatkichlarini oshirish va mahalliyashtirish dasturlarini izchil davomiyligini ta'minlash maqsadida import o'rnini bosuvchi, eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish borasida iqtisodiy islohotlarimiz davom ettirilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki insonlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi hamdir. Bir so'z bilan aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rta sinfni shakllantirish uchun muntazam kengayib borayotgan baza bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada bir qator qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari va boshqa sohani rivojlantirishga oid bir qator me'yoriy –huquqiy xujjatlar qabul qilinib, tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli farmoni asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan ‘Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish” iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish”, [2] 2023 yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturini realizatsiya qilish, belgilab qo'yilgan. [3]

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining turli darajalarda rivojlanish omillari va tendensiyalarini ishlab chiqish, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining tuzish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi PF-193-son “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoniga ko'ra mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo'llab-quvvatlashning “uzluksiz zanjirini” yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirish, Jamg'arma Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta'rischiligida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda — Kompaniya) shaklida qayta tashkil qilish, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularni kompleks qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha yordam instrumentlarini mustaqil joriy etish, tadbirkorlarning qo'llab-quvvatlash choralardan foydalanish imkoniyatini oshirish hamda Kompaniya tomonidan 2024-yil 1-martdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga quyidagi qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etish, o'rta tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish loyihalariga aktivlar shaklida ulush kiritish. kabi qator vazifalar belgilangan. Bu borada smeta hujjatlarini tuzishda eskirgan va amaliyotda ishlatilmaydigan texnologiyalar va mashinalarni chiqarib tashlash, bozor mexanizmlarini joriy qilish nuqtayi nazaridan qayta ko'rish, tender savdolari o'tkazish va qurilish shartlarini o'zgartirish mexanizmini takomillashtirish, qurilish pudrat tashkilotlari faoliyatini tekshirishlarni tender narxlarini hisobga olib, ishlarni yakunlagandan keyingina amalga oshirish asosida kichik va yirik tadbirkorlik subyektlari orasidagi intgeratsion aloqalarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunga qadar tadbirkorlik tushunchasi ko'plab ilmiy tadqiqotlar muhokama qilingan va ushbu soha iqtisodiyotning muhim bir elementi hisoblanadi. Tadbirkorlik tushunchasini ilmiy jihatdan birinchi bo'lib ingliz iqtisodchisi R.Kantilon kiritgan. Uning "Savdo qilish to'g'risida bitiklar" asarida tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlari va mohiyati batafsil yoritilgan. R.Kantilon tadbirkorni havf-xatar ostida savdo faoliyatini olib boruvchi va raqobat asosida o'z korxonasiga ega bo'lgan shaxs

deb ta'riflaydi. U fikricha, tadbirkorlar noaniq daromadga ega bo'lib, boshqalarning mahsulotlarini ma'lum narxlarda sotib olib, o'z mahsulotlarini esa noma'lum narxlarda sotishlari mumkin. Bu ta'rif tadbirkorlik tushunchasining zamonaviy talqinlari va rivojlanishi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. R.Kantilonning yondashuvi tadbirkorlikning asosiy jihatlarini, jumladan, risk va qaror qabul qilish jarayonini o'z ichiga oladi, bu zamonaviy tadbirkorlik faoliyatining markaziy elementlaridan biridir. [4]

Amerikalik iqtisodchi J.B. Klark (1847-1938) J.B. Seyning «uchlik formulasiga» muhim o'zgartirish kiritdi. U ishlab chiqarishda doim to'rt asosiy omil ishtirok etadi:

1. Kapital
2. Ishlab chiqarish vositalari va yer
3. Tadbirkorlik faoliyati
4. Ishchining mehnati

Har bir omil ishlab chiqarishdan olinadigan alohida foyda bilan bog'liq: kapitaldan kapitalist qo'shimcha foiz oladi, yer esa renta keltiradi. Shuningdek, kapitalistning ishbilarmonlik faoliyati daromad olishiga olib keladi, ishchining mehnati esa maosh shaklida kompensatsiya qilinadi. J.B. Klarkning so'zlari bilan aytadigan bo'lsak: «Erkin raqobat mehnatdan kelgan narsani ishchilarga beradi, kapitalistlarga esa kapital yaratgan narsa taqdim etiladi, tadbirkorlar muvofiqlashtirish faoliyatidan hosil bo'lgan daromadni oladi». Tadbirkorlik faoliyati uning tushunchasida shunday ifodalangan. [5]


Mashhur amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» kitobida tadbirkorni yangiliklar yaratadigan shaxs sifatida ta'riflaydi. U tadbirkorlik faoliyatini kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan yangiliklarni joriy etish jarayoni sifatida ko'radi. Shumpeterning fikriga ko'ra, «yangi kombinatsiyalarni joriy etish funksiyasiga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlarini tadbirkor deb ataymiz». [6] Iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan (1974) ingliz iqtisodchisi Fridrix Fon Xayn bu muammoga o'ziga xos yondashuv bilan qaragan. Uning fikricha, tadbirkorlik faqatgina amalga oshiriladigan faoliyat emas, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish va hatti-harakatlarni ta'minlash jarayonidir. Fon Xayn tadbirkorlikni yangiliklarni aniqlash va yangi imkoniyatlarni yaratish jarayoni sifatida tushunadi. [7]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan Tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita o'rganish, tadbirkorlikni kelgusida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan 'Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish" iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish" kompleks dasturi olindi. [8]

**Tahlil va natijalar.** So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda "uzluksiz zanjir" tushunchasi

tadbirkorlik faoliyatining barcha bosqichlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Tadbirkorlarning biznesini boshlashdan tortib, uni rivojlantirishgacha bo'lgan jarayonlarni yengillashtirish maqsadida davlat tomonidan turli xil dasturlar va subsidiyalar taqdim etilmoqda. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etish, o'qitish va malaka oshirish bo'yicha ham ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, biznes yuritish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash va raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu esa nafaqat tadbirkorlarni, balki umuman iqtisodiyotni ham yanada kuchaytirish imkonini berad

O'zbekiston Respublikasida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni dinamikasi holatini tahlil qiladigan bo'lsak kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari yildan-yilga o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin. (1-rasm)



**1-rasm. 2024-yil hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni dinamikasi (har 1000 aholiga nisbatan, birlikda) [9]**


Yuqorida keltirilgan 1-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 1000 aholiga nisbatan hududlar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarga ega: Toshkent shahrida — 27,5 birlik, Jizzax viloyatida — 13,8 birlik, Xorazm viloyati — 12,4 birlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi — 11 birlik, Surxondaryo viloyatida — 8,8 birlikni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlar natijasida 2020-2024yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami 445,4 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi sub'yektlar savdo sohasida – 169,5mingta (yoki 38,1%), xizmatlar sohasida – 111,7 mingta (yoki 25,1%), sanoat sohasida – 81,1 mingta (yoki 18,2%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 57,2 mingta (yoki 12,8%) va qurilish sohasida – 25,9 mingta (yoki 5,8%) tashkil etilgan. (1-jadval)

**1- jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni. (2020-2024 yillarning yanvar-dekabr oylarida)**

Tarmoqlar nomi	Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlikda	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>445,4</b>	<b>100,0</b>
Qishliq xo'jaligi	57,2	12,8
Sanota	81,1	18,2
Qurilish	25,9	5,8
Savdo	169,5	38,1
Xizmatlar	111,7	25,1

2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 57,0% ni tashkil qildi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Qashqadaryo (76,2%), Farg'ona (76,1%), Surxondaryo (75,8%), va Namangan (75,6 %) viloyatlariga to'g'ri keldi. (2-rasm)



**2-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi (2024-yil)**

Prezident Sh. M. Mirziyoyev tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Birinchi yo'nalish kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirishga qaratilgan. O'tgan yili kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi tizim joriy etildi. Ushbu tizim doirasida Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etildi. Yil boshidan boshlab 35 mingdan ortiq tadbirkorga jami 3,5 trillion so'm mikro kreditlar ajratilgan. Shuningdek, "Biznesga birinchi qadam" dasturi orqali tadbirkorlikni yangi boshlayotgan 115 ming aholiga 1 trillion so'mlik mikroqarzlarni taqdim etildi. Endilikda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda

barcha banklar va mikromoliya tashkilotlari ishtirok etishi mumkin. Bu yondashuv tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor iste'molchining manfaatlariga muvofiq harakat qilishdan boshqa alternativaga ega emas. Biroq, tadbirkor iste'molchining manfaatlarini doimo hisobga olishi kerak degani emas. Tadbirkor, aslida, iste'molchining talabini shakllantirib, yangi iste'mol ehtiyojlarini yaratish imkoniyatiga ega. Shundan kelib chiqqan holda, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ikki asosiy usulni keltirish mumkin:

**Iste'molchi manfaatini aniqlash usuli:** Bu usulda tadbirkor iste'molchilarning mavjud ehtiyojlarini, istaklarini va muammolarini o'rganadi, shunday qilib, ularni qondirish yo'lida takliflar ishlab chiqadi. Ushbu yondashuv iste'molchilar bilan yaqin aloqada bo'lishni, ularning fikrlarini tinglashni va yangiliklarga ochiq bo'lishni talab etadi.

**Iste'molchiga yangi tovar yoki xizmatlarni "majburan qabul qildirish" usuli:** Bu usul tadbirkor tomonidan yangi yoki innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratish orqali iste'molchining fikrini o'zgartirishni nazarda tutadi. Tadbirkor iste'molchiga o'zining qanday foydali va yangi takliflari borligini ko'rsatib, ularni o'z mahsulotlariga qiziqtirishi va jalb etishi kerak.

Ushbu ikki usul orqali tadbirkor, iste'molchining ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z biznesini muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. [10]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tadbirkor ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faol rol o'ynaydi va iste'molchining ehtiyojlarini hisobga olish uning muvaffaqiyati uchun muhimdir. Tadbirkorlik jarayonining samaradorligi va mazmuni iste'molchining faolligiga bog'liq. Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari va ishga doir sifatleri tadbirkorlikni harakatga keltiradigan kuch hisoblanadi. Tadbirkorning ishga doir sifatleri quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

**Bozorni tahlil qilish:** Tadbirkor bozorning tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini o'rganish orqali iqtisodiy tizimda o'z o'rnini aniqlashi zarur.

**Ishlab chiqarish tuzilmasini yaratish:** Tadbirkor shaxsiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishga tayyor bo'lishi, muammolarni hal qilish uchun ijodkorlik ko'rsatishi lozim.

**Marketing tadqiqotlari:** Tadbirkor marketing tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqqan holda dastlabki moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirishi muhimdir.

**Rahbarlik qobiliyati:** Tadbirkorlik loyahasini amalga oshirishda rahbarlikni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoani samarali boshqarish qobiliyatini talab etadi.

**Yangi texnologiyalarni joriy etish:** Tadbirkor yangi texnik va texnologik g'oyalarni birinchi bo'lib hayotga tatbiq etish qobiliyatiga ega bo'lib, bu g'oyani qanday mahsulot yoki xizmatlarda foydalanish mumkinligini tasavvur qilishi kerak. Ushbu tamoyillar tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlar bu tamoyillarga amal qilib, o'z ishlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adayibotlar:**

1. Jahon banki statistik ma'lumotlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- sonli farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli qarori

4. Кантильон Р. Очерк о природе торговли вообще. Ч. 1, гл. 13// Мировая экономическая мысль Т. I. С. 273-276.
5. Ж.Б. Кларк. Распределение богатства. М., 1994. 40с 2й.
6. Шумпетер. Теория экономического развития. М., 1982.
7. Ф.Хайн. Конкуренция как процедура открытия. «Мировая экономика и международные отношения» журналы, 1989. 12с
8. <https://lex.uz/ru/docs/-6945979>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
10. Светуных М.Г., Светуных С.Г. Предпринимательство и инновации. Ульяновск: УлГТУ, 2010. с.239.

